
ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 9

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 9

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.09.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)*
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.09.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.09.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

ЛУТФУЛЛАЕВА ДУРДОНА
Тилшуносликда миллат ассоциатив портретини аниқлаш методикаси..... 7

IBRAGIMOV JAVLON YORMATOVICH
Nutqiy sistema lisoniy imkoniyatlar voqelanishi ko‘zgusida..... 12

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Uslub atamasining kelib chiqishi va uning til
taraqqiyotidagi turli davrlarda qo‘llanishi..... 15

XUJAMKULOVA MAXBUBA BOBONAZAROVNA
Darak gaplarda nutqiy akt tushunchasi 19

ABDULLAYEV DAVRONBEK
Lingvistik talqinda leksik ma’no o‘zgaruvi badiiy
nutqning daraja vositasi sifatida 22

ERGASHEVA DILRABO ALLANAZAROVNA
Odil Yoqubov asarlarida ruhiy holat so‘zlari va ularning
olam obrazini shakllantirishdagi ahamiyati 25

KADIROVA ZAYNURA ZAYNIDINOVNA
Filologik terminologiyaning mohiyati va xususiyatlari 30

НОРБОЕВА ДИЛАФРЎЗ ЖУМАҚУЛОВНА
Соҳавий терминлар ва уларнинг тил хусусиятлари 36

ISMOILOVA MAMLAKAT QURBONOVNA
Ijtimoiy tarmoq marketingi terminlarining o‘rganilish tarixi 39

MENGLIYEVA MUNIRA
Aspektual ma’no ifodalovchi leksemalarning ingliz izohli
lug‘atlaridagi talqinini takomillashtirish yo‘llari 42

МАМАСОЛИЕВ ИЛХАМ УБАЙДУЛЛАЕВИЧ
Приспособление иностранной лексики в русском языке
на основе материалов русскоязычных СМИ Узбекистана 46

МУНДАРИЖА

XODJIYEV YUSUF NORQULOVICH
O‘zbek tilida “ona” konsepti misolida “oilaparvarlik” xarakterining ifodalanishi 50

ALIMBEKOVA MAVJUDA XALIMJON QIZI
Fitrat korpusi lemmalarini avtomatik aniqlashda yuzaga kelgan muammolar 56

ADABIYOTSHUNOSLIK

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Понятие и особенности литературного цикла 59

ТУРСУНОВА НАСИБА
Мотам маросими ва иримлар талқинига доир 63

DAVLATOVA SHAHNOZA MUHAMMADIYEVNA
Jahon adabiyotida yurisprudensiya va sud
jarayonlari badiiy talqin etilgan asarlar tahlili 67

TANGIROV RO‘ZIBOY
Shukur Xolmirzayev hikoyalarida o‘zbek xarakterining badiiy ifodasi 69

QURBONOVA SARVINOZ GULBOYEVNA
Nodim Namangoniyning Qo‘qon adabiy muhitidagi o‘rni 73

Резюме: В этой статье представлены происхождение термина «стиль» и его значение, использование и характеристики. В статье также указывается процесс появление разговорный, официальный, научный, публицистический и художественных стилей речи. Древние романы и наследие развития узбекского языка из истории, а также некоторые произведения великих ученых и предков, таких как Махмуд Кошгарий и Юсуф Хос Ксожиб, анализируются лингвостилистическим образом в рамках статьи.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

DARAK GAPLARDA NUTQIY AKT TUSHUNCHASI

Xujamkulova Maxbuba Bobonazarovna,
O'zbekiston Milliy universiteti
o'zbek tilshunosligi kafedrasi v.b.dotsenti

Jahon tilshunosligida yangi ilmiy paradigmalarning shakllanishi inson tafakkuri va nutqiy faoliyati bilan bog'liq masalalarni o'rganish zaruriyatini belgiladi. Ijtimoiy hayotda kishilar o'rtasidagi o'zaro aloqa jarayoni – kommunikatsiyani yuzaga chiqaruvchi nutq birliklarining pragmatik tadqiqiga e'tibor kuchaydi. Tobora o'sib borayotgan fan sohada yangilik sifatida til birliklarining nutqiy voqelanishi ularning nutqiy vaziyat, kontekst bilan bog'liq muammolarini o'rganishga kirishdi. Bu esa fanning antroposentrik mohiyat kasb etishiga asos bo'ldi va tilshunoslikning psixolingvistika, sotsiolingvistika, pragmalingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya kabi inson omili bilan bog'liq bo'lgan yangi sohalari shakllandi.

Pragmalingvistika sohada til birliklari tahlilining yangi usullari paydo bo'lishiga asos bo'ldi. Natijada, o'zbek tilshunosligi lug'atida yangi terminlar paydo bo'ldi. Jumladan, nutqiy akt tushunchasi "odamlar o'rtasidagi aloqa-aralashuv jarayonida sodir etiluvchi o'zaro ma'no aktlari munosabatining"[1] bayonini ifodalaydi va pragmalingvistikaga bog'liq tushuncha hisoblanadi.

Sodda gaplarni pragmatik jihatdan tahlil qilish tilning kommunikativ birliklarini taqozo etadi. O'zbek tilidagi sodda gaplarni pragmalingvistik jihatdan tahlil qilish an'anaviy tilshunoslikda qo'lga kiritilgan ilmiy-nazariy xulosalarni zamonaviy lingvistik tahlil usullari yordamida boyitadi. Natijada til birliklarining (jumladan, sintaktik belgilar) mohiyatini chuqurroq yoritadi.

Nutqiy akt tushunchasi pragmalingvistikaning tayanch tushunchalaridan biri sifatida tadqiq etilmoqda. Nutqiy faollik so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi borliq-hodisa haqidagi bilimi va bu bilimga har ikkala subyektning munosabati bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. «So'zlovchi obyektiv olamdagi voqeliklarni ko'radi, ma'lum his-tuyg'ular vositasi bilan anglaydi, idrok qiladi. Aloqa-aralashuv jarayoni bilish, anglash, ifodalash, sezish, uqish bilan uzviy aloqador ifoda formalarining turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Ifoda formalarining qo'llana boshlashining o'zidayoq munosabat tushunchasi namoyon bo'la boshlaydi»[2]. Nutqiy akt so'zlovchining ma'lum muhitda, aniq maqsadda tinglovchiga lisoniy murojaatidir[3].

Nutqiy akt tushunchasi tilni falsafiy mantiqiy o'rganish bilan bog'liq bo'lib, til birliklarining funksional «qo'llanish darajasi» mohiyati bilan oydinlashadi. Nutqiy akt muammolariga oid ma'lumotlar V.Gumboldt, Sh.Balli, S.Karsevskiy, L.P.Yakubinskiy, K.L.Byuller, E.Benvenist, M.M.Baxtin kabi olimlarning lingvistik qarashlarida uchraydi.

Har qanday ifodada so'zlovchi ma'lum bir harakatni sodir etadi. Ma'lum maqsad uchun yo'naltiril-

[1] Собирова М. Газета матнларида нутқий актларнинг ифодаланиш усуллари// Ўзбекистонда хорижий тиллар. - №3(32). – Тошкент, 2020. – Б. 42-51.

[2] Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан.док. ..дис.

[3] Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – Б. 71.

gan inson faoliyati ko‘rinishlaridan biri sifatida nutq tushuniladi[1]. Nutqiy akt tushunchasi, odamlar o‘rtasidagi aloqa-aralashuv jarayonida sodir etiluvchi o‘zaro ma’no aktlari munosabatining bayonidir.

Pragmatika nutqiy aktning bevosita kontekst bilan munosabatini o‘rganadi. Shuningdek, nutqiy akt makon, sub’ekt va vaziyat bilan bog‘liq holda yuzaga chiqadi. Ko‘rinadiki, nutqiy akt bilan uni amalga oshiruvchi vasitalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat nutqiy muloqot maqsadini namoyon qiladi, pragmatikaning asosiy o‘rganish obyekti sanaladi.

Masalan, *Farroshning mehnatini qadrlang.* Ushbu sintaktik birlik shunchaki olinganda tinglovchida birinchi bo‘lib, u tozalikni saqlovchi kishi, uni hurmat qilish kerak, degan fikr tug‘iladi. Lekin binolarda yozib qo‘yilgan ushbu gapni o‘qiganimizda bu yerni iflos qilmaslik kerak degan tushuncha paydo bo‘ladi.

Tilning mavjudligi insonlarning so‘zlash yoki yozish harakatlarini bajarish bilan bog‘liqdir. Bu harakatlarning bajarilish jarayonida lisoniy birliklar asl ma’nosidan tashqari, tasdiqlash, buyurish, ogohlantirish, va’da berish kabi mazmunni ifodalash imkoniyatini namoyon qiladilar. Bu ma’nolar so‘zlovchi shaxs tomonidan bajarilayotgan nutqiy faoliyat natijasidir. Demak, nutqiy akt so‘zlovchining ma’lum muhitda, aniq maqsadda tinglovchiga lisoniy murojaatidir[2]. Masalan, *Shahargacha hali uzoqmi? (So‘zlovchining maqsadi yo‘lning uzoq yoki yaqinligini bilish emas, o‘zga kerakli manzilni bilish).*

Ko‘pchilik tilshunos olimlar tomonidan nutqiy aktni uch bosqichga bo‘lib o‘rganishni e’tirof etadilar. Ya’ni bular nutqiy faoliyatning uch xil harakat bosqichini o‘taydilar:

1. Lokutiv –talaffuz faoliyati jarayoni, faoliyat ijrosi;
2. Illokutiv –sub’ekt intensiv maqsadining voqelanishi;
3. Perlokutiv – tinglovchiga nutqiy ta’sir o‘tkazish;

Biz nutqiy jarayon paytida til birliklari asosida ma’lum bir gaplarni talaffuz qilamiz. Bunday talaffuz jarayonlari lokutiv aktni yuzaga keltiradi (*Kun bo‘yi uxlading* – lokutiv jarayon).

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, biz nutqiy jarayon paytida til birliklari asosida ma’lum bir gaplarni talaffuz qilamiz. Lekin bu gaplarni nima maqsadda, qanday sharoitda talaffuz qilishimizni tahlil qiluvchi hodisa illokutiv jarayondir. Demak, illokutiv jarayon so‘zlovchi maqsadining voqelanishidir: *Kun bo‘yi uxlading. Birortayam ish qilganing yo‘q.* (so‘zlovchining tinglovchiga norozilik ifodasi).

Aytib o‘tganimizdek, sintaktik birliklarni pragmatik jihatdan, xususan, nutqiy akt doirasida tahlil qilishda uning kommunikativ tiplari ham muhim o‘rin tutadi. Darak gaplarga xos pragmatik xususiyatlarni, nutqiy akt nazariyalari bo‘yicha quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Verdiktiv (lot. “vere dictum”-“haq gapni aytish”[3]). – qaror chiqarish, hukm qilish, ogohlantirish va shu mazmunidagi darak gaplar (bu turdagi gaplar bir qarashda buyruq mazmunini ham ifodalashi mumkin, ammo “farmoyish qilindi”, “qaror qilindi” hukmli lisoniy qoliplarda ko‘proq axborot berish mazmuni anglashiladi). Masalan, *Majlis qaror qiladi*, *Prezident farmoni qabul qilindi*. *Birinchi marta sizni ogohlantiraman. Mashininangiz jarima maydoniga olib boriladi.*

2. Komissiv (ing. “commitment”- “majburiyat” Sh.S.) – va’da berish va uni ijro etish mazmunidagi darak gaplar: *“Senga uylanaman”, “Muhabbatingni qozonaman”. “Bu yilgi hosilni yuz foiz bajaramiz”. “Men uddaladim”.*

3. Bexabitiv (ing. “behave”- “o‘zini tutmoq”,“habit”- “odat” Sh.S.) – ijtimoiy hayotda qo‘llaniladigan odob-axloq, nutqiy estetik qoidalariga asoslangan nutqiy harakat birliklari: “*Yordamingiz uchun minnatdorman”, “Sizni ko‘rganimdan xursandman”, “Yordamingizni ayamaganingiz uchun rahmat*”.

4. Konfliktiv (lot. “contlictue”-“ixtilof, to‘qnashish”[4]) – tahdid, so‘kish, qarg‘ish, ayblov mazmunidagi salbiy axborot uzatuvchi darak gaplar: “*Seni qamataman”, “Barcha ko‘rguliklarga sen aybdorsan”, “Kun ko‘rmagin, iloyo”,* “*Sut ko‘r qilsin, oqpadar*”.

5. Deklarativ (lot.“declarativus”-“tushuntirish, bayonot berish”[5]) – voqelikdagi holatning o‘zgarishida ishtirok etishi: *Sening isming Muhammad. Sening isming Muhammad. Sening isming Muhammad* (chaqaloq qulog‘iga azon aytilganda).

6. Espressiv (lot. “espressive”-“jonli, ifodali”[6]) – tilak, tabrik, duo va boshqa ijobiy mazmunda qo‘llanuvchi darak gaplar (bunga, asosan, marosim, urf-odat, ta’ziya-maraka kabi tadbirlarda qo‘llanuvchi deyarli tayyor lisoniy birliklar): *Sizga uzoq umr tilayman. Bayramingiz bilan tabriklayman.*

Ma’lumki, har qanday muloqot harakati natijaviy maqsadni ko‘zlab bajariladi. Bu maqsadga erishish uchun so‘zlovchining nutqi tinglovchiga ta’sir o‘tkazmog‘i darkor. Nutqiy faoliyatning ta’sir o‘tkazish bosqichi perlokutiv hodisa hisoblanadi. Ya’ni, perlokutiv jarayon tinglovchiga ta’sir o‘tkazish bosqichidir. Xudi shu misolni tahlil qilaylik: *Kun bo‘yi uxlading.*

[1] Воронин С.В. Фоносемантические идеи в зарубежной языкознании. – Л., 1990. – С. 95.

[2] Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008.

[3] ЎзМЕ I жилд. – Тошкент, 2000. Электрон ресурс. Манба: https://uz/wikipedia/org/w/index (2022.6.13).

[4] Мамажонов С. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. https://qomus.info/ . (2022.06.13).

[5] Викисловарь.https://ru.wiktionary.org/wiki/ https://ru.wiktionary.org/w/index.php?title=declarativus&action=edit&redlink=1 (2022.06.13).

[6] Электрон манба: https://languages.oup.com/google-dictionary-en

Tinglovchi, albatta, so‘zlovchidan o‘zi tomonidan bajarilayotgan harakat haqida ma’lumot olayotgani yo‘q. Nutq vaziyatidan kelib chiqqan holda tinglovchi so‘zlovchining norozi kayfiyatini tushunib turibdi (*Birortayam ish qilganing yo‘q).*

Har bir gap talaffuz qilinganda, o‘z ma’nosi ifodasidan tashqari, ma’lum bir harakat bajariladi, ya’ni biror bir voqea haqida darak-xabar beriladi, bu xabar tasdiqlanadi yoki inkor qilinadi, biror narsa iltimos, taqiqlanadi, taqiqlanadi va buyruq, maslahat ijozat beriladi, va’da yoki taklif qilinadi (Austin 1962)[1]. So‘lovchining nutqi qanday maqsad ifodalayotganligini nutqiy akt yuzaga chiqaradi. Shuningdek, uning murojaatini tinglovchi qanday qabul qiladi va unga qanday javob beradi –bu ham nutqiy aktga bog‘liq. Masalan,

-Ha, sigir, yo‘qoldimi?

-Yo‘q…sigir emas, ho‘kiz, ola ho‘kiz edi.

-Ho‘kizmi?..Ho‘kiz ekan-da! Himm. Ola ho‘kiz? Tavba! ..

-Bor-yo‘g‘im shu bitta ho‘kiz edi…

Amin chinchalog‘ini ikkinchi bo‘g‘inigacha burniga tiqib kuldi.

-Yo‘qolmasdan ilgari bormidi?

Qandaqa ho‘kiz edi?

-Ola ho‘kiz…

-Yaxshi ho‘kizmidi yo yomon ho‘kizmidi?

-Qo‘sh mahali…

-Yaxshi ho‘kiz birov yetaklasa keta beradimi?

-Bisotimda hech narsa yo‘q…

-O‘zi qaytib kelmasmikin?..

Birov olib ketsa qaytib kela ber, deb qo‘yilmagan ekan-da! Nega yig‘lanadi? A? Yig‘lanmasin!

Qobil bobo yerga qarab tek qoldi.

-Qidirtirsakmikin-a? –dedi amin chinchalog‘ini etigining ostiga artib, -suyunchisi nima bo‘ladi? Suyunchidan chashna olib kelinmadimi?

Aminning bu gapi Qobil boboga «Ma, ho‘kizing» deganday bo‘lib ketdi. (A.Qahhor «O‘g‘ri»).

Misoldagi nutq ishtirokchilarining muloqotidan ma’lumki, so‘zlovchining jabrlangan holdagi nutqi tinglovchi uchun muhim emas, uning tinglovchining murojaatiga bergan javobi umuman boshqa maqsadni ifodalamoqda.

Nutqiy akt nazariyasi bo‘yicha berilgan tasniflarni darak gaplarning pragmatik turlari bilan bir nuqtada tahlil qilishimizga sabab darak gaplarning turli ma’no anglatuvchi yuqoridagi turlari ham kontekstda so‘zlovchining tinglovchiga nutqiy ta’siri va maqsadi, shu bilan birga, tinglovchining o‘sha nutqdagi sharoiti hamda holatini ifodalaydi. Yuqorida keltirilgan *bexabitiv* tasnifida odob-axloq, nutqiy estetik qoidalariga asoslangan tilak, tabrik, duo va boshqa ijobiy mazmunda qo‘llanuvchi darak gaplar berilgan. Bunga, asosan, marosim, urf-odat, ta’ziya-maraka kabi tadbirlarda qo‘llanuvchi deyarli tayyor lisoniy birliklar kiradi: *Ta’ziyamni qabul qiling*. *Xafa bo‘lmay o‘tiring* kabi. So‘zlovchi tinglovchiga hamdardlik izhor etish bilan achinish tuyg‘usi mavjudligini anglatmoqda va tinglovchining holati (suhbatdoshining kimidir vafot etganligi haqida)ni bildirmoqda va ayni damda, lokutiv, illokutiv va perlokutiv harakatlarning amalga oshishi kuzatilmoqda. A.V. Doroshenko ta’kidlaganidek, “nutqiy aktning mazmuniy jihati pragmatik komponentlar – illokutiv funksiya, motiv maqsad, adresatga ta’sir etish taktikasi, nutq ishtirokchilarining ijtimoiy va individual xarakteri, ishtirokchilarning emotsional holatlari va kommunikatsiyaning perlokutiv ta’sirini qamrab oladi”[2].

Umuman olganda, nutqiy akt nazariyasi pragmalingvistik ta’limotda nutqiy muloqot tizimining, nutq ishtirokchilarining turli maqsadini namoyon etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Rezyume. Jahon tilshunosligida yangi ilmiy paradigmalarning shakllanishi inson tafakkuri va nutqiy faoliyati bilan bog‘liq masalalarni o‘rganish zaruriyatini belgiladi. Ijtimoiy hayotda kishilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa jarayoni – kommunikatsiyani yuzaga chiqaruvchi nutq birliklarining pragmatik tadqiqiga e’tibor kuchaydi. Tobora o‘sib borayotgan fan sohada yangilik sifatida til birliklarining nutqiy voqelanishi ularning nutqiy vaziyat, kontekst bilan bog‘liq muammolarini o‘rganishga kirishdi. Maqolada darak gaplarning pragmatik jihati badiiy matn doirasida tahlil qilindi. Nutqiy akt tushunchasi darak gap doirasida tasniflandi.

Resume. Formation of new scientific paradigms in the world linguistics determine the necessity of studying the problems dealing with human mind and speech activity. At present time the attention paid to the pragmatic investigation of speech units which makes mutual process of communication emerge among humans in the social life is rising. In the sphere of science which is developing rapidly, the fact that speech activity studies the problems which deal with speech acts and contexts has started as a news. This was the basis for antropocentric essence and new spheres which are connected to the human factors such as

[1] Ўша манба. – Б.72.

[2] Бу ҳақда қаранг: Ҳакимов М. Ўбек тилида нутқий актнинг баъзи муаммолари // Ўзбек тили ва адабиёти // №1. – Тошкент, 1999. – Б. 45.

psycholinguistics, sociolinguistics, cognitive linguistics, linguaculturology have beeen formed. The state is analyzed in the text the pragmatic aspect of figurative language. The concept of a speech act was classified within the framework of a sentence.

Резюме. Формирование новых научных парадигм в мировом языкознании выдвинуло на первый план необходимость изучения вопросов, связанных с мышлением и речевой деятельностью человека. Особое внимание уделяется процессу взаимодействия людей в общественной жизни, т.е. прагматическому изучению единиц речи, порождающих коммуникацию. В качестве новшества в растущей области науки речевой феномен языковых единиц начал изучать их речевую ситуацию, контекстуальные проблемы. В статье анализируется прагматический аспект образного языка в художественном тексте. Понятие речевого акта классифицировалось в рамках предложения.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

LINGVISTIK TALQINDA LEKSIK MA'NO O'ZGARUVI BADIIY NUTQNING DARAJA VOSITASI SIFATIDA

Abdullayev Davronbek,
Qoraqalpoq davlat universiteti
o'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ma'lumki, har qanday frazeologik birlik grammatik me'yorni izchil ta'minlashga xizmat qiladi, uning asosida shakllangan leksik ma'no bayondagi ifoda va tasvir bo'shliqlarini to'ldiradi, biroq ibora inson tomonidan anglangan voqelik qirralarini to'liq tasavvur qilishga imkoniyat yarata olmaydi, balki predmet, borliq, xususiyat, vaziyat va holatga xos ma'no tarmog'ini ifodalanish bilan cheklanadi. Mohiyatan kontsept va tushuncha ham ma'no, ham ong hosilasi sanaladi, unda anglash va idrok qorishib ketadi. Inson tana a'zolari bilan bog'liq somatik frazemalar ma'rifati tafakkur ehtiyoji va cheklangan til lug'aviy zaxirasining to'qnashuvidan shakllanadi. Ba'zi hollarda frazema lug'aviy muqobil shakliga ega bo'lsa ham, uslubiy munosabat ifodasida o'zaro farqlanadi. Frazeologiya, umuman, barqaror birliklar (maqol, matal, aforizmlar ham) – tilning tengsiz, muqobilsiz xazinasi hisoblanadi.

«Hozirgi o'zbek adabiy tili» asarining «Leksikologiya va semasiologiya» qismida «bosh» so'zining asl ma'nosi gavdaning bo'yindan yuqori qismi, ammo u turli xil so'z birikmalarida turli ma'noni ifodalaydi: yo'lning boshi, ish boshi, bosh vazifa. Bu so'z frazeologik birliklar tarkibida ham keladi: bosh ko'tarmoq – qo'zg'almoq, harakatga kelmoq; bosh bo'lmoq – rahbarlik qilmoq; bosh egmoq – bo'ysunmoq, taslim bo'lmoq»[1], – deya ta'kidlangan.

Ularda xalq dunyoqarashi, tarixi, madaniyati, ma'naviyati va maishiy turmush tarzining o'ziga xosliklari namoyon bo'ladi. Aslini olganda, frazeologik birikma sof milliy-mental xarakterga ega, biroq tillararo hamkorlik baynalmilal ifoda madaniyatini shakllantirishini inkor qilib bo'lmaydi. Yuqorida ta'kidlanganidek, agar ingliz tili fraza fondida frantsuz, nemis va italyan millatlari lug'at fondiga xos frazeologik birliklar uchrasa, o'zbek iboralari fondida fors-tojik va arab mentalitetiga aloqador iboralarga duch kelish tabiiy holdir. Shu nuqtai nazardan, frazeologik birliklar, aynan, ifoda madaniyati til sathining oliy shakllaridan biri bo'lib, ularda nutq malakasi va obraz yaratish qayta namoyon bo'ladi. Demak, millatning milliy-mental o'ziga xosliklari, millatimizga xos turg'unlashgan axloq normalari, qadriyatlari, xalqimizning

[1] Фахри Камол. Лексикология ва семасиология // Ҳозирги узбек адабий тили. Икки томлик. 1-том. Фонетика, лексикология, морфология. – Тошкент: Фан, 1966. – Б.116.